

MAHATMA GANDINING INSON TABIATI HAQIDAGI QARASHLARI

Sherdor Ne'matjonovich Po'latov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Sharq falsafasi va madaniyati kafedrasi tayanch doktoranti
sherdorpulatov@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mahatma Gandhi o'zing dunyoqarashi va falsafiy g'oyalarida inson masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. Chunki, uning g'oyaviy negizida inson eng muhim omil sifatida ko'rildi. Uning ta'lilotida gumanizm g'oyalarining shakllanishi o'z o'zidan paydo bo'lmadi. U o'zidan avvalgi diniy ta'lilotlarga, g'oyaviy nazariyalarga va faylasuf, mutafakkirlar qarashlariga tayandi.

Kalit so'zlar: Mahatma Gandhi, Hind falsafasi, falsafa, inson, insonparvarlik, tabiat, inson, axloq, haqiqat.

ABSTRACT

In his worldview and philosophical ideas, Mahatma Gandhi focuses on the issue of humanbeing. Because at its core, human is seen as the most important factor. The formation of humanist ideas in his teachings did not arise spontaneously. He relied on the teachings of his predecessors, ideological theories, and the views of philosophers and thinkers.

Keywords: Mahtama Gandhi, Indian philosophy, philosophy, human, humanity, nature, morality, truth.

KIRISH

Mahatma Gandhi, mumtoz hind tizimining asosi bo'lgan, insonni butun borliq deb bilgan. Gandhi inson faqat biologik mavjudot yoki shunchaki fizik-kimyoviy birikma ekanligiga ishonmagan. Uning uchun inson ma'naviy mohiyatga egadir. Gandhi uchun "mavjud bo'lish" emas, balki (kelib chiqish) "yetishib chiqish" muhimroqdir. Bunga gandishunos Raghavan Iyer quyidagicha izoh berdi: "U inson o'zining mohiyatida qanday ekanligi va o'zi haqidagi yolg'on g'oyasi tufayli kim bo'lib yetishishi, u kim bo'lishi kerakligi va

uning qonunlar bilan boshqarilgan koinotdagi o‘rni tufayli kim bo‘lib yetishib chiqishiga juda aniq ishonch bilan boshladi”.¹ Shuningdek, Gandi insonda Xudoning mavjudligiga ham ishongan. Shunday qilib, inson tabiatan ilohiydir. Bu insonni ruhiy mavjudotga aylantiradi. Gandining fikriga ko‘ra, ilohiyotning mavjudligi turli odamlarda farqlanadi. Shu sababli, u biron bir kishiga yoki narsaga sig“inishdan bosh tortadi. U yagona xudo haqida fikr ham yuritadi. U shunday degan: “Xudo nafaqat butun koinotga, balki jonzotlarga ham xos bo‘lganligi sababli, biron bir odam yoki ob’ektni ilohiylashtirish masalasi tug‘ilmaydi. Har bir insonda ilohiy narsa bor”². Yagona narsa shundaki, ba’zilarida ilohiylik ko‘proq, boshqalarida esa kamroq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik, Mahatma Gandhi asarlari obyektiv ochib berildi. Tarixiylik,Mahatma Gandhi yashagan davr tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi. Mantiqiylik izchillik jihatdan tadqiq qilindi. Tizimlilik, M. K-Gandhi, Non-violence in Peace and War, voh I, Ahmedabad, 1962, ctp. IX., M. K-Gandhi, Truth is God, Ahmedabad, 1957, ctp. 10, Dhirendra Mohan Datta “The Philosophy of Mahatma Gandhi” 1953, Pyarelal, Mahatma Gandhi. The Last Phase, vol. 1, Ahmedabad, 1956, M. K- Gandhi, All Men are Brothers, Paris, 1958, M. K- Gandhi, Truth is God, D. G. Tendulkar, Mahatma Volume 1-8: Life of Mohandas Karamchand Gandhi, Anil Dutta Mishra, Fundamentals of Gandhism, (New Delhi; Mittal Publication, 1996), M.M. Sankhdher, Understanding Gandhi Today, (New Delhi: Deep & Deep Publications, 1996). asarlari tizimli tarzda tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Gandiga ko‘ra, inson tabiatni eng muhim xususiyati bo‘lgan ilohiy tabiatini anglaydi. Uning ta’kidlashicha, har bir insonda mavjud bo‘lgan Ilohiy unsurlardan to‘g‘ri foydalanilsa, insoniyat samodagi jannatni yerga olib kela oladi.³ Inson hayvon sifatida shafqatsiz, ammo ruhiy shaxs sifatida u zo‘ravon emas. Aynan uning o‘z ilohiy mohiyatini anglashi, uni barcha tirik jonzotlarga rahm-shafqat qilishga, hamda fikrda, so‘zda va ishda zo‘ravonlik ishlatmaslikka undaydi. Ma’naviy kuchga ega bo‘lish uchun, Gandi jismoniy kuchni o‘ziga bo‘ysundirishni taklif qildi. U:

¹ Raghavan Iyer, “Gandhi’s view of Human Nature” in *Gandhi Marg*, Journal of the Gandhi Peace Foundation, (New Delhi: Gandhi Peace Foundation), Vol. 6, No. 2, April 1962, p. 134

² Mahadev Desai, *The Diary ofMahadev Desai*, (Ahmedabad: Navajivan Publishing House, 1932), p 35

²⁶ *Young India*, 4.8.1927, p. 107

³ Lala Gopal Prasad, Religion, Morality and Politics According to Mahatma Gandhi, (New Delhi: Classical Publishing Company, 1991), p.3.

“Tanangizni zabit etganingiz sari ruhingizning kuchi ortadi”⁴, dedi. Ma’lum bir bosqichdan so‘ng, tana ruhning o‘sishiga mutanosib ravishda kamayadi.

Gandining so‘zlariga ko‘ra, inson shuningdek tana, aql va ruhning kombinatsiyasidir. U ruhni juft bo‘lmagan, abadiy, hamma narsani biluvchi, hamma joyda mavjud va hamma narsaga qodir deb biladi. Gandi, shuningdek, odam ongli ravishda ilohiy bo‘lsa-da, o‘zining kundalik hayotida ezbilikdan ko‘ra ko‘proq boshqa fazilatlarni o‘ziga singdirishini aniqladi. Inson ko‘pincha xudbin, ishonchhsiz, o‘zini aldashga qodir, loqayd, shaxvatparast va kuchga chanqoqdir deb hisoblagan. Gandi inson tabiatining yetarli darajada qorong‘i tomonini ko‘rgan⁵. Shu munosabat bilan u shunday fikr bildirdi: “Men achchiq tajribalarni boshdan kechirdim, ba’zida barmoqlarimni qattiq kuydirdim. Men mutlaqo aybsiz deb o‘ylagan odamlar buzuq bo‘lib chiqdi. Yomonlikning ildizi bizning tabiatimizda chuqur yotganini payqadim”⁶. Ushbu achchiq tajribalar uni inson nomukammal ekanligini va xatoga yo‘l qo‘yishligini aytishga majbur qildi. U butunlay yaxshi yoki yomon bo‘lgan inson yo‘qligiga ishongan. Odamlar orasidagi farq turida emas faqatgina darajadadir: “Bizning har birimiz yaxshilik va yomonlikning aralashmasidirmiz. ...Insonlar orasidagi farq, darajadagi farqdir”⁷.

Gandi shuningdek, Xudo va insonning ajralmas birligiga ishongan. U quyidagicha ta’kidlagan: “Men advayta (अद्वैतः “birlik”)ga ishonaman, men Xudo va insonning muhim birligiga va shu munosabat bilan barcha tirik mavjudotlarga ishonaman”⁸. U Xudo va odamlar o‘rtasidagi metafizik birlikka ishonganligi sababli, inson va inson o‘rtasidagi munosabatlarni ilohiy deb ta’riflagan. U Xudoning birodarligini tan olib: “Butun hayot aslida birdir”⁹ dedi. U so‘zlarini davom ettirib: “Biz hammamiz bitta Xudoning farzandlarimiz va shuning uchun inson tabiatini hamma joyda bir xil”¹⁰ dedi. Odamlarning ilohiy tengligini tavsiflash uchun daraxtning metaforasidan foydalanib, u shunday dedi: “Biz hammamiz tanasini yerning tubida joylashgan ildizidan yulib olib bo‘lmaydigan ulug‘vor daraxtning barglarimiz. Eng kuchli shamol uni harakatga keltira olmaydi”¹¹. So‘ngra, ummon metaforasidan foydalanib: “Biz bu cheksiz rahm-shafqat ummonidagi

⁴Young India, 4.8.1927, p. 107

⁵See Ram Rattan, “Gandhi’s Concept of Human Nature” in Verinder Grover (ed), M.K.Gandhi, (New Delhi: Deep&Deep publications, 1996),p.206.

⁶ M.K. Gandhi, *Satyagraha in South Africa*, Trans, by V.G. Desai, (Madras: S. Ganesan, First Edition 1928), p. 371

⁷ Harijan, 10.6.1937,pp. 158-159.

⁸ Raghavan N. Iyer, “Gandhi’s view of Human Nature” in Verinder Grover (ed), M.K.Gandhi, (New Delhi: Deep&Deep Publications,1996),p.212

⁹ Pyarelal, Gandhiji’s Correspondance with the Covernmment, 1942-1944, (Ahmedabad:Navajivan Publishing House, 1945), p.88.

¹⁰ Harijan, 13.4.1940,p.92.

¹¹ Ibid, 28.7.1946,p.236.

tomchilarmiz”¹² dedi. Haqiqatni ijtimoiy hodisa deb e’lon qilishga yordam bergen narsa, bu insonning ilohiy tengligiga bo‘lgan ishonch edi va u shunday dedi: odamlarning ovozi – bu Xudoning ovozidir.¹³

Gandi hech qachon inson tabiatiga bo‘lgan ishonchini yo‘qotmagan. U inson tabiatining asosiy yaxshiliklariga chuqur ishongan. Ayrim Gandi tanqidchilari uni insondan juda ko‘p narsa kutganlikda va inson tabiatining kamchiliklarini ko‘rmaganlikda aybladilar. Ammo Gandi inson tabiatini sinchkovlik bilan o‘rganganini va amaldagi idealist ekanligini ko‘p marta aytgan. Darhaqiqat, u inson tabiatini chuqur bilar edi va inson tabiat doimo pastga qarab rivojlanishga moyil ekanligiga ishonishdan bosh tortdi. Inson tabiat har qanday ezgu va do‘stona amallarga javob berishga majbur edi. Uning fikriga ko‘ra, “agar siz odamlarga ishonch va muhabbat bilan murojaat qilsangiz, siz o‘n ming karra ko‘proq mehr qaytdi”.¹⁴ Darhaqiqat, u doimo insonning cheksiz mehribonligiga ishongan. U bir marotaba: “Hech qachon insoniyatga bo‘lgan ishonchni yo‘qotmang. Bir nechta iflos tomchilar insoniyat ummonni buzolmaydi”¹⁵ deya ta’kidlagan. Bularning barchasi Gandhi inson tabiatiga chuqur ishonishini anglatardi. Shuningdek, 1926 yilda u shunday degan edi: “Men inson tabiat doimo tanazzulga moyil ekanligiga ishonishdan bosh tortaman”¹⁶. 1927 yilda u yana shunday dedi: ‘Menga o‘xshagan odamlar o‘zlarining qarama-qarshi g‘oyalarga qaramay inson tabiatiga bo‘lgan ishonchlariga yopishib olishadi”¹⁷.

Uning inson haqidagi falsafasida biz insonning buyuk kelajagi borligiga va u yuksak va oljanob taqdirga intilayotganiga ishonganligini ko‘rdik. Gandhi insonning kuchidan ham xabardor bo‘lib, Insonga nafaqat tabiat qonuniga binoan parchalanishi mumkin bo‘lgan jismoniy tanasi, balki ongli tanasi ham hissiyotlar va shunga o‘xshash boshqa ruhiy fazilatlar berilgan deb hisoblagan.

Mashhur sotsiolog P.A. Sorokin ta’kidlaydi: “Hissiy madaniyati insondagi hamma narsani qamrab olishga karakat qiladi, uni mutloqlashtirish esa, odamni oddiy yarim mexanik, yarim psixologik organizm darajasiga tushirdi, har qanday ilohiy uchqundan, mutlaq qadriyatdan, oljanob va muqaddas narsadan mahrum etadi”.¹⁸ Demak, odamning materialistik talqini mutloqlashtirish insonni kamsitadi. Inson

¹² Ibid, 12.10.1947, p.368.

¹³ Ibid, 17.5.1942, p.156.

¹⁴ M.K.Gandhi, Speeches and Writings of Mahatma Gandhi, (Madras:G.A. Natesan & Co, 1934), p. 407.

¹⁵ Quoted by Jaladhar Pal, (ed.), *The Moral Philosophy of Gandhi*, (New Delhi: Gyan Publishing House, 1998), p. 287

¹⁶ Raghavan N. Iyer, “Gandhi’s View of Human Nature” in S. Mukhejee & S. Ramaswamy, *Facets of Mahatama Gandhi-4, Ethics, Religion and Culture, (New Delhi: Deep & Deep Publications, 1998)* p.8

¹⁷ Ibid.

¹⁸ Sorokin, P.A., The Social and Cultural Dynamics, London, Peter Owen, 1957, P.625.// Nirupama Bhattacharyya // dessert // Gandhi’s concept of individual and society// Thesis submitted to Gauhati University for the award of the Degree of Doctor Philosophy (Arts) Date: 08/05/2006 p 107

shunchaki hayvon emas, chunki u axloqiy javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi va ma’naviy intilishlar haqida gapiradi.

Gandi evolyutsiyaning sistematik nazariyasini shakllantirmagan. Uning evolyutsiyasining yakuniy maqsadi ham Moksha (ozod bo‘lish मोक्ष) bilan bog‘liq. O‘z-o‘zini anglash - bu hayotning maqsadi. U “men” ning birligini va “men” ning mutlaq “men” bilan birlashishini o‘z ichiga oladi. U barcha odamlarga xos fazilat sifatida uqlab yotgan ahimsaning izchil va bosqichma-bosqich rivojlanishini tavsiflaganda evolyutsiyaning biologik kontseptsiyasini eslatib o‘tdi.

Gandining fikriga ko‘ra, “inson ruhi uning ijtimoiy va siyosiy qayta qurish rejasidagi asosiy toifadir”¹⁹. Biroq, keng ma’noda, inson tafakkur tarixida inson tabiatini anglashga ikki xil urinishlar bo‘lgan. Bir urinish uni yomonlash, qora rangga bo‘yash, boshqalari esa uni ko‘tarish va ideal qilishga urinish edi²⁰.

Gandi insoniyatga nisbatan passiv va fatalistik mavjudot sifatida an’anaviy qarashni qabul qilmadi. Uning uchun inson tobora yuqoriroqqa ko‘tarilishga harakat qiladigan dinamik jonzotdir. Shu sababli u doimo “odamlarning yaxshiliklariga murojaat qilib, shunga yarasha javob kutgan”²¹. U yana shunday dedi: “Mening kuch ishlatmsalik qobiliyatiga bo‘lgan ishonchim inson tabiatining doimiy noaniqligi nazariyasini rad etadi”²². Garchi u inson tabiatining hayvonlarga xos tomonini qabul qilgan bo‘lsa-da, u insonning ongli ravishda o‘zini yaxshi tomonga o‘zgartira olish qobiliyatiga ishongan. Bu aniq ma’noda evolyutsyon nazariya tarafдори deb xulosa qilib bo‘lmaydi. U aytadi: “Inson rivojlanishda yuqoriga ko‘tarilish yoki pastga tushish yo‘llaridan birini tanlashi kerak, lekin unda hayvonlarga xos bo‘lgan hususiyatlar borligi sababli, unga ko‘tarilishdan ko‘ra pasayish yo‘nalishini tanlash osonroq, ayniqsa, qachonki pastga tushish unga chiroyli ko‘rinishda taqdim etilganda”²³.

Biroq, odam bu moyillikni o‘zida boshqarishga harakat qiladi. U shunday deb yozgan edi: “Biz hayvoniq qo‘pol kuch bilan tug‘ilganmiz, lekin bizda yashayotgan Xudoni anglash uchun tug‘ilganmiz. Bu insonni hayvondan ajratib turuvchi afzallik tomonidir”²⁴. Garchi Gandhi insonning shunday kelib chiqishini tan olgan bo‘lsa-da, “Inson tabiatni mohiyatan johil emas. Shavqatsiz tabiat muhabbat ta’siriga berilishi mumkin. Siz hech qachon inson tabiatni borasida umidsizlikka tushmasligingiz

¹⁹ Majumdar H.T., Mahatma Gandhi, Ahmedabad., 1963, P.85.

²⁰ Tiwari, K.N., World Religions and Gandhi, CPH, ND, P.43

²¹ Quoted by K. Munirathnam Chetty, op. cit, p. 117

²² *Harijan*, 7.6.1942, p. 177

²³ Rahavan N. Iyer “Gandhi’s View of Human Nature” in Verinder Grover. Op.cit., p. 211

²⁴ *Harijan*, 2.4.1938, p. 65.

kerak”²⁵. U uchun inson yaxshi, chunki u ilohiy va barcha mavjudotlar bilan, ayniqsa, butun insoniyat bilan o‘z qarindoshligini anglashga qodir.

Shu bilan birga, Gandi ham barcha odamlarni, nomukammal deb hisoblagan. U shunday dedi: “Hech kim nuqsonsiz emas, hatto Xudoning bandalari ham. Ular, mukammal ekanliklari uchun emas, balki o‘z xatolarini bilishlari uchun va doimo o‘zlarini tuzatishga tayyor bo‘lganliklari uchun Xudoning bandalaridirlar”²⁶. Inson o‘zining hayvonlarga xos qudratini sevgi, fidoyilik, o‘z-o‘zini inkor etish bilan yengib o‘tishi va shu bilan haqiqiy insoniyligini, unda yashaydigan ilohiylikni anglashi kerak. Biroq, inson tabiatini qo‘polikdan axloqiylikka o‘zgartirish oson ish emas. Buning uchun inson doimo harakat qilishi kerak. Gandishunos olim Anil Datta Mishra quyidagicha izoh bergen: “Gandi odamni shafqatsizdan axloqiy va ma’naviy tomonga o‘zgarishi oson ish emas deb hisoblaydi. Zo‘ravoniksizlik ruhiy holatiga erishish uchun juda mashaqqatli izlanish kerak. U ma’naviy barkamollikka erishish uchun bir necha hayotga ega bo‘lishni afzal ko‘radi. U inson tabiatini boshqarishni tavsiya qilar ekan, majburiy repressiya bo‘lmasligi kerak, deb hisoblaydi. Bu zararli ta’sirga olib keladi. Har bir inson o‘z ixtiyoriy harakatlari bilan rivojlanishi kerak. Inson qanchalik buzuq bo‘lmasin, u haqiqatni amalda qo‘llash va zo‘ravonlikdan bosh tortish orqali o‘zini tuzatishi mumkin. Hech bir odam uni qutqara olmaydigan darajada yomon emas”²⁷. Gandi inson tabiatini isloh qilish mumkinligiga umid qilgan. U shunday deb yozgan edi: “Men qaytarib bo‘lmaydigan optimistman. Mening optimizmim mening imonimga, kuch ishlatmaslikni rivojlantirish uchun insonning cheksiz imkoniyatlariga asoslangan”²⁸. Gandi ta’kidlashicha, inson himsa yoki zo‘ravonlikni kamaytirish natijasida kannibalizmdan sivilizatsiyalashgan hayotgacha rivojlangan, va ahimsa sari intilmoqda. Bularning barchasi Gandi uchun inson tabiatni harakatsiz yani statik emas, balki harakatchan ekanligidan ishonchli tarzda dalolat beradi. Uning fikriga ko‘ra, “Bu dunyoda harakatsiz narsa yo‘q, hamma narsa o‘zgarishda. Agar taraqqiyot bo‘lmasa, orqaga qaytish muqarrar”²⁹.

Gandi inson nafaqat xatolarga moyil, shuningdek, nafaqat xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin, balki o‘z xatosini tuzatish qobiliyatiga ega ekanligiga ishongan: “Ruh hammada birdir. Shuning uchun uning imkoniyatlari hamma uchun bir xildir”³⁰. Gandi “Yosh Hindiston” jurnalida da shunday deb yozgan edi: “Mening hayotimni

²⁵ S. Mukhejee and S. Ramaswamy, Facets of Mahatma Gandhi-4, Ethics, Religion and Culture, (New Delhi: Deep & Deep Publications, 1998), p. 8

²⁶ Quoted by K. Munirathnam Chetty, op. cit., p. 118

²⁷ Anil Dutta Mishra, *Fundamentals of Gandhism*, (New Delhi; Mittal Publication, 1996), p. 34

²⁸ D.G. Tendulkar, *Mahatma: Life of Mohandas Karanachand Gandhi*, (New Delhi: The Publications Division of Ministry of Information and Broadcasting, Govt. of India, December 1938), Vol. 5, p. 17

²⁹ *Harijan*, 11.8.1940, p. 245

³⁰ *Harijan*, 18.5.1940, p. 254

boshqaradigan ideallar umuman insoniyat tomonidan qabul qilinishi uchun taqdim etiladi. Har qanday erkak yoki ayol, men kabi ayni harakat qilsa, hamda umid va iymonni rivojlantirsa, men ega bo‘lgan narsaga erishishi mumkinligiga shubham yo‘q”³¹. U so‘zlarini davom ettirib: “Va men shuni tasdiqlaymanki, men qiladigan ishlarni hamma bajarishi mumkin, chunki men juda oddiy odamman, xuddi ko‘pchiligidan singari vasvasaga va zaiflikka ham duchor bo‘laman”³². Va yana: “Men bolaligimdan ta’lim oldim va insoniyatning asosiy fazilatlarini odamlarning eng quyi qatlami yetishtirishi mumkinligi haqidagi haqiqatni o‘z tajribamda boshdan kechirdim. Aynan mana shu imkoniyat insonni Xudoning boshqa barcha mavjudotlaridan ajratib turadi”³³. Bularning barchasi insonning dinamik tabiatiga ega ekanligiga bo‘lgan ishonchini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuning uchun u shunday dedi: “Inson tabiatini qat’iy ravishda belgilab qo‘yilmagan va insonning xulq-atvori juda katta o‘zgarishlarga duch kelgan va qodir”³⁴. Gandhi 1900-yillarning boshlarida odamlarning xatti-harakatlarini o‘rgangan va atrof-muhit odamlarning xulq-atvorini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi, deb ta’kidlagan amerikalik psixolog Jon B. Uotsonning fikriga qo‘shiladi.

Gandi atrof muhitning inson xarakterini shakllantirishga ta’siri kattaligini tan oladi. U shunday dedi: “Atrof-muhit haqiqatan muhim rol o‘ynaydi”³⁵. Uning so‘zlariga ko‘ra, inson o‘z muhitining ta’sirini o‘zgartirishga qancha urinmasin, hech kim uning ta’sirini butunlay yo‘q qila olmaydi. Inson atrof-muhit bilan ta’sirlanganligi sababli, Gandhi iroda namoyon bo‘lishiga katta e’tibor bergan. Shuning uchun u shunday deydi: “Inson haqiqatan ham odatiga ko‘ra yashayotganligini anglab, uning uchun iroda mashqlari bilan yashash yaxshiroq deb o‘ylayman”³⁶. Uning fikriga ko‘ra, inson o‘zi-o‘ziga ko‘maklashish va o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatiga ega. U, 1936 yil iyun oyida “Harijon” jurnalida aytganidek, o‘z-o‘ziga ko‘maklashish doktrinasini anglaganlar o‘zlarining muvaffaqiyatsizligi uchun o‘zlarini ayplashadi. U aytadi: “Inson “Bu noto‘g‘ri, bu noto‘g‘ri”, deya boshladi. Ilgari esa, u o‘zini tutishini oqlar edi, endilikda, na o‘zini, na qo‘shnilarining xatti-harakatlarini oqlamaydi. U xatolarini tuzatmoqchi”³⁷.

Yuqoridagi inson mohiyati haqidagi fikrlar, Gandhi an'anaviy hindistonlik taqdir yoki qismat tushunchasini qabul qilmaganligini va inson o‘zini o‘zi o‘zgartirishi va shu bilan o‘z taqdirini belgilashi mumkinligiga ishonganligini

³¹ *Young India*, Vol. II, p.204.

³² *Young India*, Vol. II, p.517.

³³ *Harijan*, 16.5.1936, p. 109

³⁴ Gopinath Dhawan, *The Political Philosophy of Mahatma Gandhi*, (Ahmedabad: Navajivan Publishing House, 1951) op. 107

³⁵ Quoted by M.M. Sankhdher, *Understanding Gandhi Today*, (New Delhi: Deep & Deep Publications, 1996), p. 71

³⁶ D.G. Tendulkar, *Mahatma*, op.cit., p. 13.

³⁷ Verinder Grover op. tit., p. 215

anglatadi. Insonning ushbu dinamik elementi unga: “Qiyinchiliklarni yengish inson uchun imtiyozdir”³⁸, deb aytishga imkon berdi.

Gandi shuningdek, inson vasvasaga duchor bo‘lishini tan oldi. Inson vasvasalarga qarshi turish va ularga qarshi kurashish uchun aql kuchidan foydalanishi kerak. “U o‘z tasavvurining tashqi dushmanlari bilan jang qiladigan, va son-sanoqsiz dushmanlarga barmog‘ini ko‘tarishga ojiz, yoki undan ham yomoni, ularni do‘stlar deb xato qiladigan jangchi emas”³⁹. U yana bir bor, odamning ongli ravishda bu vasvasalarga qarshi tura olish qobiliyatiga ishongan.

XULOSA

Shunday qilib, umuman, Gandhi insonning ma’naviy tabiatiga; inson o‘zligini anglash imkoniyatiga ega ekanligiga; inson tabiatan harakatchan (dinamik) va statik emas ekanligiga; inson atrof-muhit ta’sirida bo‘lishiga qaramay, u o‘z irodasi va mustaqil faoliyatni orqali atrof-muhitni o‘zgartirish qobiliyatiga egaligiga; inson nafaqat nima yaxshi va nima yomonligini bilishga qodirligi, balki, shuningdek, yomonlikdan qochish va yaxshilikni qabul qilish qobiliyatiga egaligiga; va u ongli ravishda o‘zini yaxshi tomonga o‘zgartirishi mumkinligiga ishongan. Gandhi tomonidan anglangan inson tabiat haqidagi barcha bu g‘oyalar inson tabiatining yana bir so‘nggi va asosiy xususiyati, ya’ni uning ongi borligini anglatadi.

REFERENCES

1. Raghavan Iyer, “Gandhi’s view of Human Nature” in Gandhi Marg, Journal of the Gandhi Peace Foundation, (New Delhi: Gandhi Peace Foundation), Vol. 6, No. 2, April 1962, p. 134
2. Mahadev Desai, The Diary of Mahadev Desai, (Ahmedabad: Navajivan Publishing House, 1932), p 35
3. Lala Gopal Prasad, Religion, Morality and Politics According to Mahatma Gandhi, (New Delhi: Classical Publishing Company, 1991), p.3.
4. Young India, 4.8.1927, p. 107
5. See Ram Rattan, “Gandhi’s Concept of Human Nature” in Verinder Grover (ed), M.K.Gandhi, (New Delhi: Deep&Deep publications, 1996), p.206.
6. M.K. Gandhi, Satyagraha in South Africa, Trans, by V.G. Desai, (Madras: S. Ganesan, First Edition 1928), p. 371
7. Harijan, 10.6.1937, pp. 158-159.

³⁸ D.G. Tendulkar, *Mahatma*, op.tit., p. 267

³⁹ Raghavan N. Iyer, “Gandhi’s View of Human Nature” in Verinder Grover (ed.), *M.K. Gandhi*, op. cit., p. 214

8. Raghavan N. Iyer, “Gandhi’s view of Human Nature” in Verinder Grover (ed), M.K.Gandhi, (New Delhi: Deep&Deep Publications,1996),p.212
9. Pyarelal, Gandhiji’s Correspondance with the Covermment, 1942-1944, (Ahmedabad:Navajivan Publishing House, 1945), p.88.
10. Harijan, 13.4.1940,p.92.
11. Ibid, 28.7.1946,p.236.
12. Ibid, 12.10.1947,p.368.
13. Ibid, 17.5.1942,p.156.
14. M.K.Gandhi, Speeches and Writings of Mahatma Gandhi, (Madras:G.A. Natesan& Co, 1934),p. 407.
15. Quoted by Jaladhar Pal, (ed.), The Moral Philosophy of Gandhi, (New Delhi: Gyan Publishing House, 1998), p. 287
16. Raghavan N. Iyer, “ Gandhi’s View of Human Nature” in S. Mukhejee & S. Ramaswamy, Facets of Mahatama Gandhi-4, Ethics, Religion and Culture, (New Delhi: Deep & Deep Publications,1998) p.8
17. Sorokin, P.A., The Social and Cultural Dynamics,London,Peter Owen, 1957, P.625.// //Nirupama Bhattacharyya//dessert// Gandhi’s concept of individual and society// Thesis submitted to Gauhati University for the award of the Degree of Doctor of Philosophy (Arts) Date: 08/05/2006 p 107
18. Majumdar H.T., Mahatma Gandhi, Ahmedabad., 1963, P.85.
19. Tiwari, K.N., World Religions and Gandhi, CPH, ND, P.43
20. Quoted by K. Munirathnam Chetty, op. cit, p. 117
21. Harijan, 7.6.1942, p. 177
22. Rahavan N. Iyer “Gandhi's View of Human Nature” in Verinder Grover. Op.cit., p. 211
23. Harijan, 2.4.1938, p. 65.
24. S. Mukhejee and S. Ramaswamy, Facets of Mahatma Gandhi-4, Ethics, Religion and Culture, (New Delhi: Deep & Deep Publications, 1998), p. 8
25. Quoted by K. Munirathnam Chetty, op. cit., p. 118
26. Anil Dutta Mishra, Fundamentals of Gandhism, (New Delhi; Mittal Publication, 1996), p. 34
27. D.G. Tendulkar, Mahatma: Life of Mohandas Karamchand Gandhi, (New Delhi: The Publications Division, Ministry of

- Information and Broadcasting, Govt, of India, December 1938), Vol. 5, p. 17
28. Gopinath Dhawan, The Political Philosophy of Mahatma Gandhi, (Ahmedabad: Navajivan Publishing House, 1951), p. 107
29. Quoted by M.M. Sankhdher, Understanding Gandhi Today, (New Delhi: Deep & Deep Publications, 1996), p. 71
30. D.G. Tendulkar, Mahatma, op.cit., p. 13.
31. Verinder Grover op. tit., p. 215
32. D.G. Tendulkar, Mahatma, op.tit., p. 267
33. Raghavan N. Iyer, “Gandhi’s View of Human Nature” in Verinder Grover (ed.), M.K. Gandhi, op. cit., p. 214.